

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

«UMUMIY PEDAGOGIKA» FANIDAN

**«Мақтабда муаммоли таълим»
MAVZUSIDAGI**

KURS ISHI

Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi P.Бурхонова

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

Kafedra mudiri:

dots. A.Abdumannotov

Kurs ishi kafedraning 2013-yil ____ iyunda bo'lib o'tgan ____-sonli majlisida
himoya qilindi va _____ foizga baholandi

Komissiya raisi: _____

A'zolari: _____

SAMARQAND – 2013

REJA

KIRISH

ASOSIY QISM:

1. Muammoli ta'limning tarixiy aspektlari va rivojlanish bosqichlari
2. Ta'lim-tarbiya tizimida muammoli o'qitishdan foydalanish tadqiqot predmeti sifatida
3. Muammoli ta'limni tashkil etishning shakl va metodlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, eng avvalo aholi turmush tarzi darajasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu vazifalarni samarali hal qilish yuksak ma'naviyatli, bilimli, rivojlangan davlatlar darajasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liqdir.

Xalqimizning intellektual va ma'naviy salohiyati mamlakatimiz kuch-qudratining muhim omili ekanligiga to'xtalib, Prezident I.A.Karimov Xalqaro Vestminster universitetining ochilish tantanasida so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Darhaqiqat, bizning bunday omilni hisobga olmaslikka haqqimiz yo'q. Chunki, o'z oldimizga qo'ygan yuksak vazifa va marralarga erishishda zamonaviy bilim va tajriba sohibi bo'lgan yangicha fikrlaydigan yoshlarimiz bizning tayanchimiz va suyanchimizdir, desak ayni haqiqat bo'ladi.

Oldimizda turgan buyuk vazifalarni yechishning asosiy omili, ularni hal qilishning yagona sharti tom ma'noda barkamol shaxsni, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Yurtimizning yorug' kelajagi, xalqimizning hych kimdan kam bo'lmasdan farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan bu vazifalarni ado etish barchamizning insoniy burchimizdir... bugun Vatanimizga nafaqat yuqori malakali mutaxassislar, balki umumbashariy meros va qadriyatlarni zamonaviy bilim va tafakkur bilan boyitishga qodir huquqiy demokratik jamiyatda odamlarning ozod va erkin yashashini, mustaqil fikr yuritib, har tomonlama asoslangan qarorlar qabul qilishini hayotiy zarurat deb biladigan barkamol yoshlar kerak».

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida pedagogika fanlari turkumi alohida ahamiyatga ega. Ularni tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarga, pedagogik ijodga jalb qiladi. Shuningdek kelgusi faoliyatida o'z mutaxassisligi bo'yicha predmetni o'qitish-o'rgatish, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, jismoniy va aqliy tarbiyalash bo'yicha mavjud barcha imkoniyatlardan oqilona foydalana olishi mumkin.

O'quvchilarning mustaqil ravishda bilimlarini oshirish, ijodiy izlanishga jalb qilish, ularning o'quv-ilmiy faoliyatini amalga oshirishda muammoli topshiriqlarni va vaziyatlarni yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni muammoli vaziyat va topshiriqlarni bajarishga, turli tuman pedagogik faktlarni to'plashga va umumlashtirishga, ular asosida mustaqil ravishda muammoli masalalar, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga muntazam ravishda jalb qilish, ularning diqqatini kuchayishiga, mustaqil fikr yuritishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milli dasturi»da pedagogik kadrlar yetishtiradigan ta'lim muassasalari oldiga pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ularni yangicha fikrlaydigan, umumbashariy meros va qadriyatlarni zamonaviy bilim va tafakkur bilan boyitishga qodir, huquqiy-demokratik jamiyatda yoshlarni ozod va erkin yashashini, mustaqil fikr yuritib, har tomonlama asoslangan qaror qabul qilishni hayotiy zarurat deb biladigan qilib yetishtirish vazifasi qo'yilgan. Ushbu dolzarb

masalalar asosida mazkur malakaviy bitiruv ishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muammoli vaziyatlar yaratish va boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilgan muammo yuzasidan tadqiqotlar olib borish maqsad qilib qo'yilgan.

Tadqiqot maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'lim-tarbiya tizimida muammoli vaziyatlar yaratish va qo'llash malakalarini shakllantirish.

Tadqiqot obyekti: boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida muammoli vaziyatlar yaratish va ulardan foydalanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: muammoli vazitlar yaratish va ularning boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati.

Tadqiqot vazifalari:

1. Muammoli ta'limning kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlarini mavjud adabiyotlar asosida o'rganib chiqish;

2. Respublikamizda mazkur soha bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishib chiqish;

3. Ta'lim-tarbiya tizimida muammoli vaziyatlar yaratish va ulardan foydalanishning shakl va metodlarini ishlab chiqish;

Tadqiqotga metodologik asosi O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy kújjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma'kaması, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy kújjatlar; pedagogika, psixologiya va metodika bo'yicha ta'limni muammoli o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etishga oid xorijiy tajribalar, nazariyalar va konsepsiyalar, shuningdek, respublikamiz olimlarining qarashlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ta'lim so'kasida ilgari surilgan g'oyalardan iborat.

ASOSIY QISM:

1.1. Muammoli ta'limning tarixiy aspektlari va rivojlanish bosqichlari

Muammoli ta'lim XX asrning 20-yillarida amerikalik olim J.Dion va uning shogirdi V.X.Kilpatrik tomonidan taklif etilgan. Bu texnologiya ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlar qo'yilishi va o'qituvchilarni ushbu muammolarni hal etish orqali bilm, ko'nikma va malakalarni egallashga asoslanadi.

Hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonida samarador o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitishdir. Unning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda izlanish uslubini shakllantirishdir, shuningdek muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchining mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Bugungi kundagi pedagogik adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli ta'riflari mavjud. Ushbu ta'riflar ichida, nisbatan to'liq va aniq ta'rif M.I.Maxmutova tomonidan berilgan, unda muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va o'quvchilarning izlanishga oid faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, talab va h.k) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, o'quv muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi quyidagi usullar vositasida muammoli vaziyatlar hosil qiladi:

- o'qituvchi o'quvchilarga ziddiyatni ko'rsatib, uni hal etish yo'lini topishga undaydi;

- amaliy faoliyatidagi qaram-qarshiliklarni to'qnashtiradi;

- bir mavzu bo'yicha turli qarashlarni bayon etadi;

- sinfga xodisalarni turli nuqtai-nazardan qarab chiqishni taklif etadi (masalan, yurist, moliyachi, o'qituvchi ko'zi bilan va h.k.);

- o'quvchilarni taqqoslash, umumlashtirish, vaziyatdan xulosa chiqarish, dalillarni solishtirishga undaydi;

- aniq savollar qo'yib umumlashtirish, asoslash, aniqlashtirish, mantiqiy fikrlashga chaqiradi;

- muammoli nazarif va amaliy topshiriqlar beradi;

- muammoli masalalarni (masalan, yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotli, savol noaniq qo'yilgan, bir-biriga zid berilgan, oldindan xatoga yo'l qo'yilgan, yechilishiga chekli vaqt qo'yilgan masalalar).

Muammoli ta'lim o'rganuvchilarning fikrlash faoliyatini birmuncha faollashtirishga, ularda muammoning yechimiga yondashishni shakllantirishga, va

ni'oyat - ijodiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlarini - muammoli vaziyatlar va ularning yechimlarini tuzish bilan ta'minlanadi. Muammoli vaziyat o'qitish jarayonida mu'kim motiv va kayajonli vosita sanaladi. Uning samarasi to'g'risida A.M. Matyushkin, M.I. Maxmutov, I.Ya. Lerner kabi yirik olimlar o'z nazariyalarini yaratdilar.

Muammoli o'qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o'zida xatoliklarning uch asosiy guru'ini birlashtiradi: gnoseologik, metodik va o'quv. Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyusiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo'l qo'yiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish o'quvchilarda borliqni tanqidiy mushokadalash, taklil qilish va o'z xatolarini to'g'rilash ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o'quv predmeti va fanga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi: o'rganilayotgan fan mazmuni o'rganuvchilar oldida tayyor kaqiqatlar yig'indisi sifatida emas, balki g'oyalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzda, ijtimoiy maktab va yo'nalishlar kurashi tarzda, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Metodik xatolar o'quv xatolari bilan o'zaro bog'liq: o'rganish xatolari ko'p hollarda - o'qitish xatolari natijasidir. O'quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda kar bir muammoli modul uchun guru'klanadi va keyinchalik kuchli ta'sir etuvchi vositalar sifatida foydalaniladi. Agar an'anaviy o'qitishda bilmaslikdan bilishga o'tish standartli vaziyatlarni qo'llash bilan chegaralansa, muammoli o'qitishda o'quvchining yaqindan rivojlanishi doirasi yangi bilimlarni yuzaki o'zlashtirish va noto'g'ri qo'llashga olib keladigan tanqidiy vaziyatlar - xatolar so'kasigacha kengaytiriladi. Bunday sharoitda bilmaslikdan bilishga o'tish so'kasi o'rganuvchi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo'lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanish mintaqasiga aylanadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining yetakchi sifat belgisi - bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim mu'kim sanalgani kabi hozir kam, kelajakda kam pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator kolatlar bilan ta'minlanadi: muammoli-modul tuzilmasining safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog'onaligi, egiluvchan jadval loyikasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jikozlanganlik imkoniyatlari va boshqa.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish va integrasiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va modulli prinsip asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jikati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va bakolash tizimining egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

M.A.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli modullarini guruhlash yo'li bilan kursni to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarini ishlab chiqishni ta'minlaydigan dialektik birlikda integrasiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;

- bilim darajasiga bog'liq kolda talabalarning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo'ylab individual siljish sur'atini ta'minlanishi;

- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun ssenariylar sifatida foydalanish;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi ishida maslakatchi-koordinasiyalovchi vazifaga urg'uni ko'chirish;

- o'quv materialini bayon qilish tezligi va o'zlashtirish darajasiga putr yetkazmagan kolda o'qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish;

Shu bilan birgalikda ayrim olimlar tomonidan muammoli o'qitishning qator kamchiliklari ko'rsatildi, ular: ta'lim jarayonining bo'laklarga bo'linganligi, ya'ni o'quvchilarning mustaqil ishlari salmog'i birmuncha katta; o'quv predmetining yaxlitligi va mantiqini inkor etish; o'quvchilarni tayyorlash torligi: o'qitish kursining bog'liq bo'lmagan muammolar yoki masalalar seriyasiga qadar qisqarishi; umumlashmaga ziyon yetkazadigan xususiy, aniq ko'nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlikning ko'p meknat talab qilishi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obyektiv qonuniyatlari hamda didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi.

O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili, psixolog va pedagoglarning muammoli vaziyat, kutilmagan hayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emosional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli texnologiyani amaliyotda qo'llash uchun quyidagilar kerak:

1. Eng dolzarb muammolarni tanlash;
2. Turli o'quv ishlarida muammoli ta'lim xususiyatlarini aniqlash;
3. Muammoli ta'limning eng samarali tizimini yaratish;
4. O'qituvchining o'quvchilar tadqiqot ishini tashkil etishdagi mahorati;
5. Muammolarini hal etishdan kutilayotgan natijalarning amaliy, nazariy, bilim olishga oid ahamiyati (masalan, tadqiqot natijaliri asosida turli tashkilotlarga hisobot yozish, gazeta, jurnallarda chiqish va h.k.)

2. Ta'lim-tarbiya tizimida muammoli o'qitishdan foydalanish tadqiqot predmeti sifatida

Muammolilik bilishning konuniyati sifatida, uni ukitishdagi urnini aniklash didaktikasi.

Muammolik mohiyatini bilish konuniyatlari sifatida urgatish, uning ukitishdagi ahamiyatini aniklash va didaktikaga "muammolik tizimini" kiritish talabalarning yangi ukuv-bilish faoliyatlarini faollashtirish nazariy tushuntirishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

Muammolik tizimi ukuv jarayonining mantiqiy tuzilishni, urganilayotgan materialning mazmunini, talabalarning ukuv uzlashtirish faoliyatlarini tashkil qilish usullarini, ularni boshkarishni, dars texnologiyasini va pedagogning talabalar faoliyatining natijasini nazorat qilishni aks ettiradi. Agar pedagog muammoli ukitishni tashkil qilish nazariyasining mohiyatini va mazmunini, ukitishning texnik vositalarini, usullarini, shakllarini yaxshi uzlashtirsa va ularni amaliy faoliyatida ijodiy kullay olsa, u xolda muvaffaqiyat uz-uzidan keladi. Pedagogning yaxshi didaktik tayyorgarligi juda muximdir, chunki umumiy nazariyani yaxshi bilmay turib, ishga ijodiy yondoshish mumkin emas. Ukitish jarayoni san'at bulib, uz faniga talabalarni jalb qilish, fikriy bilishning guzalligini namoyon qilish, talabalarni mustakil fikrlashga undashdan iborat.

Muammoli ukitishning nazariy asoslari.

Bizning maktablardagi asosiy masala bulib, u garmonik rivojlangan shaxsni shakllantirish xisoblanadi.

Xar tomonlama rivojlangan shaxsning asosiy kursatkichi bulib, ulardagi fikrlash kobiliyatining mavjudligi xisoblanadi. Agar ukitish ijodiy kobiliyatlarni rivojlantirishga olib kelsa, u xolda uni rivojlantiruvchi ukitish bilan birga olib borilsa, bunday ukitishda, muallim fikrlash kobiliyatining konuniyatlariga suyanan xolda, maxsus pedagogik vositalar asosida talabalarning bilishga intilishi va fikrlash kobiliyatlarini shakllantirishga karatilgan fanning asoslari ukitish jarayonidan iborat bulsagina bunday ukitish muammoli buladi.

Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini tayyor usullar bilan faollashtirishga karatilgan ukitish yuli ijodiy bulmaydi.

Muammoli ukitish yuli bilan faollashtirish maksadi shundan iborat buladiki, unda tasodifiy jamlangan aloxida fikrlash kobiliyatini urgatish darajasidan iborat bulmay, maksadli vazifalarni yechish uchun fikriy ta'sirlarni tizimli olib borish zarur. Bunday faollikda tinglovchi taxlil, solishtirish, sintezlash, umumlashtirish va amalda uni konkretlashtirib, yangi ma'lumot olishdan iborat buladi. Boshkacha aytganda, bu avval uzlashtirilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni kengaytirish va chukurlashtirishdan iborat. **Avvalgi bilimlardan foydalanib bunday xulosalarga kelishni na muallim, na kitob urgatolmaydi, u talaba tomonidan izlanadi va topiladi. – bu esa bilishning izlanuvchan usulidan iborat.**

Ukuvchilarni xakikiy faollashtirish ularning mustakil izlanishlari bilan emas, balki muammoni yechish orkali amalga oshadi. Agar izlanish nazariy texnikaviy va

amaliy ukuv muammolarini yechishga karatilgan bulsa, u xolda bunday ukitish muammoli ukitishga aylanadi.

Muammoli va ananaviy ukitishlar orasidagi fark ikki xolatdan iboratligini kurish mumkin: ular bir-biridan pedagogik jarayonning maksadi va tamoyili bilan ajraladi.

Muammoli ukitishning maksadi, na fakat ilmiy bilishning natijalarini sinchliklab taxlil kilish, urganishdan iborat bulmay, tinglovchining bu natijalarini olishi jarayonini urganishdan, bilish faoliyatini va uning ijodiy kobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Ananaviy ukitish turining maksadi – ilmiy bilish, natijasini uzlashtirish, tinglovchilarni fan asoslari bilan kurollantirish va ularda mos kunikmalar va bilimlarni xosil kilishdir.

Muallim tomonidan tushuntirish – kursatish orkali ukitishni tashkil kilish asosida ukuvchilarga fanning tayyor xulosalarini uzatish tamoili yotadi. Muammoli ukitish jarayonining maksadi asosida esa, tinglovchining ukitish, uzlashtirish faoliyatida izlanuvchanlik tamoili yotadi, ya'ni ular tomonidan fanning xulosalarini va ta'sir doiralarini ochishi, yangi fanlarni yoki bilimlarning amaliyotga tadbik etishni tadvik etishidan iborat.

Muallimning muammoli ukitish faoliyati shundan iboratki, unda u yetarlicha murakkab tushunchalar xakida, tizimli ravishda muammoli xolatlarni yaratgan xolda ma'lumot beradi, tinglovchilarga muammoli vaziyatda, vokea va xodisalarning asosiy faktorlarini izoxlab, ularning ukuv-bilish faoliyatlarini mustakil xulosalar chikarish va muallim yordamida anik tushunchalar va konunlarni shakllantirishga yunaltiriladi.

Muammoli ukitishning moxiyati pedagog tomonidan talabalarning ukuv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va ukuv vazifalarini, muammolarini va savollarini xal kilish, yangi bilimlarni uzlashtirish orkali ularning bilish faoliyatini boshkarishdan iborat.

Muammoli vaziyat – bu ilmiy bilish faoliyatining konuniy maxsulidir.

Muammoli xolat uchun psixologiya fani tomonidan urnatilgan bilish faoliyatining ma'lum ketma-ketligini kuyidagicha: muammoli xolat – muammo – uni yechishning usullarini izlash – muammoni yechishdir.

Muammoli vaziyatning paydo bulishidan to uning yechilishiga kadar kuyidagi ketma-ketliklar mavjud:

- muammoli xolatning paydo bulishi;
- keyinchalik ma'nosini tushunib yetish va muammoni kuyish.
- uylash, izlanish, taxminlar kilish va gipoteza (faraz) ni asoslash;
- gipotezani isbotlash.
- muammolikni tugri xal kilinishidagi isbot.

Muammoli ukitishning umumiy funksiyalari:

- ukuvchilar tomonidan akliy- amaliy faoliyat usullarini va bilimlar tizimini uzlashtirish;

- talabalarning bilish mustakilligini va akliy kobiliyatlarini rivojlantirish;
- didaktik fikrlash kobiliyatlarini shakllantirish.

Bulardan tashkari muammoli ukitishning maxsus funksiyalari xam mavjud:

- bilimlarni uzlashtirishning ijodiy kunikmalarini tarbiyalash;
- bilimlarni kullashning ijodiy kunikmalarini tarbiyalash;
- ijodiy faoliyat amaliyotini shakllantirish va tuplash.

Demak, muammoli ukitishning vazifasi tinglovchilar tomonidan bilimlar tizimi va akliy xamda amaliy faoliyatlarining usullarini samarali uzlashtirishga xamkorlik kilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy kullash malakasini xosil kilish, ukuv va tarbiya muammolarini xal kilishdan iborat.

Muammoli ukitish ijodiy yoki evristik tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Ijodiy metod ta'lim oluvchining ijodiy mustakilligini tula amalga oshiradi. Unda tinglovchilar pedagog bergan vazifani bajaradi va uzlari xam ukuv muammosini shakllantiradi, izlanishni amalga oshiradi va pirovard natijaga erishadi. Pedagog fakat tinglovchilarning ilmiy izlanishlariga umumiy raxbarlik kiladi. Ijodiy metoddan urganilayotgan kursning umumiy asoslarini kamrab olgan eng muxim mavzularni utishda foydalanish maksadga muvofik.

Magistrant (talabalar)ning ijodiy ishlari shakliy jixatdan rang-barang. Ular ma'ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik kurish, u yoki bu masalaning nazariy xolatini (adabiyotlar bilan ishlash, xujjatlarni urganish) kurgazmali kurollar, didaktik materiallarni tayyorlash va boshkalar.

Kisman ijodiy metod murakkab muammoni bulaklarga ajratib, kulay masalalarini boskichma-boskich aniklab olishda kullaniladi va unda xal kilingan xar bir boskich masalaning keyingi boskichini yechishda asos bulib xizmat kiladi.

Muammoli ukitish metodlarining tizimi. Muammoli ukitish metodlarining tizimi ikki xil bulib, ular umumiy metodlar tizimi va binar metodlar tizimidan tashkil topadi.

Umumiy metodlar tizimiga:

- 1) Kurgazmali tushuntiruv;
- 2) Reproduktiv;
- 3) Muammoli talkin;
- 4) Kisman – izlanuvchan;
- 5) Tadmikiy usul (metod).

Juftli metodlar tizimi – axborot-reproduktiv; axborot-evristik va boshka ukitish metodlari. Umumiy va binar (juftli) metodlarining organik birikmasidan iborat bulgan muammoli ukitish metodi.

Shunday kilib, umumlashgan xoldagi muammoli ukitishni oltita didaktik usuliga ajratish mumkin: 1) monologik, 2) talkinli, 3) dialogli, 4) evristik, 5) izlanuvchan va 6) dasturlashtirilgan topshiriklar metodi.

Muammoli darsning tuzilishi. Darsning tuzilishi tematik va darslar rejasi asosida yaratiladi, dars taxlilining mantikini aniklab beradi.

Muammoli darsning tuzilishidagi elimentlar:

- 1) tinglovchilar oldingi bilimlarining dolzarblashuvi;
- 2) yangi bilimlar va xarakat usullarining uzlashtirilishi;
- 3) bilimlar va malakalarining shakllanishi.

Bu tuzilish ukitishning asosiy boskichlarini va zamonaviy darsning tashkiliy boskichlarini kursatadi. Muammoli darsning kursatkichi bulib, uning tuzilishida

izlanuvchan faoliyatning bulishi kerakligidan, tabiiyki, muammolar muammoli dars tuzilishidagi ichki kismdan iborat buladi:

- 1) muammoli xolatlarning paydo bulishi va muammoni kuyish;
- 2) taxminlarni olga surish va gipotezani asoslash;
- 3) gipotezani isbotlash;
- 4) muammo yechimining tugriligini tekshirish;

Muammoli darsning tuzilishi ukitish jarayonining tashki va ichki elimentlarining birlashuvidan iborat bulgani uchun, tinglovchi mustakil ukuv faoliyatini boshkarish imkonini yaratishga olib keladi.

Shunday kilib, insoniyat rivojlanishining xozirgi boskichida muammoli ta'lim juda zarur, chunki muammoli ukitish xar tomonlama rivojlangan, tankidiy fikrlovchi, turli xil muammoli vaziyatlardan chika olish imkoniga ega bulgan, bilimlarni tuplay oluvchi va tizimlashtira oluvchi, uzining rivojlanishini, taxlil kilaoluvchi, xamda tugrilay oluvchi shaxsni yaratadi va shakllantiradi.

3. Muammoli ta'limni tashkil etishning shakl va metodlari

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur.

Bugun jamiyat maktab oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lim texnologiyasi yetakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Didaktikada muammoli o'qitish yangi yo'nalish sifatida XX asrning 70-80 yillarida yuzaga keldi.

A.M. Matoshkin, T.V. Kudryashv, M.I. Maxmutov, I.Ya. Lernerlar muammoli o'qitish qonuniyatlarini chuqur o'rgandilar.

An'anaviy didaktika butun e'tiborni o'qituvchi faoliyatiga qaratgan edi va ta'lim jarayoni deganda asosan o'qitish jarayonini ko'zda tutgan edi. O'qitish jarayoni yetarli o'rganilmas edi, ko'pincha o'quvchilarning reproduktiv faoliyati bayon qilinardi, xolos. Hozirgi zamon didaktikasi o'quvchilarning mustaqil – o'quv – bilish faoliyatiga e'tiborni kuchaytirdi.

Muammoli ta'lim nazariyasi o'quvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Ma'lumki, shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim kharsatikichi – yuqori darajada fikr yuritish qobiliyatining mavjudligidir. Agar

ta'lim ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so'zning zamonaviy ma'nosida rivojlanuvchi ta'lim deb hisoblash mumkin.


Rivojlanuvchi ta'lim deb, ya'ni umumiy va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday ta'limni hisoblash mumkinki, unda o'qituvchi fikr yuuritishning qonuniy rivojlanishni bilimga tayaangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z o'quvchilarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikirlash qobiliyati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo'naltirilgan ish olib boradi. Bunda ta'lim, fikrimizcha, muammoli ta'lim hisoblanadi. Muammoli ta'lim yo'li bilan faollashtirishning maqsadi favqulodda, betartib ravishda vujudga keladigan fikirlash operatsiyalariga o'rgatish emas, balki (o'quvchilarni tushunchalarning o'zlashtirish darajasini oshirish) nostereotip masalalarni hal qilish uchun aqliy harakat tizimiga o'rgatishdir. Bu faollik shundan iboratki, bunda o'quvchi faktik materiallarini tahlil qilib, qiyoslab, sintez qilib, umumlashtirib, konkretlashtirib, undan o'ziga yangi axborot oladi.

Boshqacha qilib aytganda, bu ilgari o'zlashtirilgan hamda avvalgi bilimni yangicha qo'llash yordamida bilimni kengaytirish chuqurlashtirish demakdir. Avvalgi bilimlarni yangicha qo'llashni kitob ham, o'qituvchi ham o'rgata olmaydi. Bu mavjud tegishli vaziyatda o'quvchi tomonidan izlanishi va topilishi lozim. O'quvchilar tomonidan ijodiy aqliy harakatlar tizimini asta-sekin o'rganilishi ko'nikma va malakalarning yig'ilishiga, bundan harakatlar tajribasi esa aqliy faoliyat sifatining o'zgarishiga, odatda, ilmiy, tanqidiy, dialektik deb ataladigan maxsus tipdagi fikrlashni yaratishga olib keladi.

O'qitish jarayoniga muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilish:

1. O'quv dasturi bo'yicha mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
2. Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilish;
3. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilash zarur.





Muammoli ta'lim – bu o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usuli bo'lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqarvchi muayyan shaxsiy subyektiv yo'llanma sifatida tushuniladi.

Dunyoqarashni shakllantirish – bu birinchi navbatda shaxsning intellektual – faolligini shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarashni samarali shakllantirishning ikkita muhim sharti mavjud:

- 1) o'quvchilarning tushunchalar tizimini o'zlashtirishga oid faol intellektual fikrlash faoliyati.
- 2) Insonning his-tuyg'usi va emosiyasiga ta'sir etish, uning bilimini e'tiqodga aylantirish.




O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabati xarakteriga ko'ra muammoli ta'limni shartli ravishda 4 darajaga ajratish mumkin:

Muammoli ta'lim darajalari	O'qituvchi va o'quvchi faoliyati
Mustaqil bo'lmagan (odatdagi) faollik darajasi	O'qituvchi tushuntirganini o'quvchi tomonidan idrok etilishi muammoli vaziyatlar sharoitida aqliy mehnat
Yarim mustaqil faollik darajasi	Ilgarigi bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan o'quv muammolarining yechish usullarini izlashda ishtirok etish
Mustaqil faollik darajasi	Reproduktiv – izlanish tipidagi ishlarni bajarish, bunda darslik matni bilan o'quvchining o'zi ishlaydi, ilgari bilimlarini yangi vaziyatda qo'llanadi, konstruksiyaaydi, o'rtacha murakkablikdagi masalalarni yechadi, o'qituvchining ko'magi bilan gipotezalarni isbotlaydi va h.k.
Ijodiy faollik darajasi	Ijodiy tasavvurni talab etuvchi, mantiqiy tahlil qilish va o'ylab topishni, o'quv muammolarini yechishning yangi usullarini kashf etishni, mustaqil isbotlashni: mustaqil xulosa va umumlashmalar chiqarishni, kashfiyot va badiiy insholar yozishni talab qiladigan mustaqil ishlarni bajarish

Muammoli ta'limni tadqiqot metodi bilan aynan bir narsa deb emas, balki o'quvchi tafakkuri va uning xotirasining rivojlanishini ta'minlaydigan, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishiga, ilmiy faktlarni jamlashga ko'maklashadigan hamda e'tiqodni tarkib toptiradigan ta'limning bir turi deb qarash lozim.

Muammoli ta'lim hamma o'quvchilar bopmi? Amalda deyarli hamma uchun tushunarli. Biroq muammolilik saviyasi va mustaqil bilish darajasi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, ularning muammoli ta'lim texnologiyasi bilan o'qitilganlik darajasiga qarab farqlanadi.



Muammoli ta'lim – o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarga faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malkalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lib, muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt,

hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarda: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchilar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.


O'quvchilarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va ulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Muammoli dars strukturasi

Struktura – bu butun predmet, xodisa, jarayon tomonlari, qismlari, elementlarining mustahkam, nisbatan barqaror alaqasi (munosabati) va o'zaro hamkorligidir.

Zamonaviy muammoli dars strukturasi uning tipi va turidan qat'i nazar har xil darajada hal qilinadigan uchta umumlashgan didaktik masalani ko'ramiz:

- 1) o'quvchilar oldingi bilimlari va harakat usullarini o'zlashtirish.
- 2) yangi bilimlar va harakat usullarini o'zlashtirish.
- 3) ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.




Didaktikada muammoli darslarni muammoli vaziyatlarning tipiga qarab xarakterlashga oid tadqiqotlar mavjud. Shu o'rinda G.V.Artyomova o'z izlanishlari asosida muammoli darslarni tashkil etishning bir necha variantlarini taklif etadi.

Bular: 1. Versiya xarakteridagi dars.


2. Qiyosiy-umumlashtirish xarakteridagi dars.

3. Ma'naviy-axloqiy muammoli dars.

Versiya xarakteridagi dars strukturasi



Qiyosiy-umumlashtirish xarakteridagi dars strukturasi



Darsning didaktika va mantiqiy-psixologik strukturasi o'qituvchiga nazariya sifatida, darsni tashkil qilishning umumiy qoidalarini tushuntirish sifatida beriladi. Metodik strukturani o'qituvchi o'zi o'quv materialining mazmuni, didaktik maqsadi va o'quvchilarning o'qishga bo'lgan tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib tuzadi. Uning ijodi, san'ati, uning takrorlanmas individualligi ana shunda.

XULOSA

Malakaviy bitiruv ishini bajarishda bugungi kunda ta'lim tizimiga keng tatbiq etilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, shuningdek muammoli ta'limga oid adabiyotlarni o'qish, ushular asosida o'quv jarayonini tashkil qilishga oid tadqiqot olib borish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi

Yangi pedagogik texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarga an'anaviy va noan'anaviy uslub va vositalardan yangi sharoitlarda foydalanish, boshlang'ich maktab tajribasidan samarali metodikalarni tanlash, muammoli vaziyatlardan oqilona foydalanish, o'quvchilarning o'yin, o'qish, mehnat va ijtimoiy faoliyatini boshqarish, bolalar bilan to'g'ri muomala qilish mexanizmini o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim jarayoniga psixologik yondashish orqali pedagog o'z faoliyati kanda o'qituvchilar faoliyatini faqat muloqot orqali tashkil etishda o'qituvchi-o'quvchi munosabatida subyekt-subyektiv qonuniyatiga asoslanishga shart-sharoit yaratishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, biz pedagogik jarayonga turli xil nazardan qarab, quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin: pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlardan foydalanish yordamida ta'lim-tarbiya maqsadi, ya'ni vazifalarni belgilab olishdan boshlanib, bu jarayonning bir butun yaxlitlikka yo'nalishini nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiya qanday qilib, qanday usullar bilan o'qitilsa, natija yaxshi bo'ladi, degan savolga javob beradi. U o'z tizimiga ega bo'lib, unda komponentlar ketma-ketligi, o'zaro bog'liqligi, bir butunligi saqlanadi

Ta'lim jarayoniga yangicha yondoshib, muammoli vaziyatlardan foydalanish, ijodkorlik, bunyodkorlik tadbiq etilsagina, ta'lim samarasi yangi bosqichga qo'tariladi, ya'ni:

- bolaning talabi, moyilligi, istak-xoxishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- u umr bo'yi o'z bilimini o'zigina boyitishga ishonch paydo bo'ladi;
- erkin fikrlash malakasi shakllanadi;
- shaxs jamiyatda o'zining o'rnini tezroq topib olishga mukit yaratadi.

Adabiyotlar ruyxati

1. I.A.Karimov Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqi.-Toshkent: Sharq, 1997 yil.
2. I.A.Karimov «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» - Toshkent, 1997 yil. -64 b.
3. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»., 1997 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni., 1997 yil.
5. N.N.Azizko'jayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik makorat. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.-Toshkent 2006 yil. - 159 b.
6. X. Umarova. O'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini oshirishga yo'naltirilgan modulli texnologiyalar. «Xalq ta'limi» jurnali, 2005 yil 3-son. -51-54 b.
7. Malla Ochilov «Yangi pedagogik texnologiyalar». Qarshi: Nasaf, 2000 yil. -80 b.
8. N.Shodiyev Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv uslubiy qo'llanma.-Samarqand 2005 yil. -31-41 b.
9. O'.Tolipov va boshqalar O'quv – tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. – Toshkent: 2004 yil. -62 b.
10. J.O.Tolipova Pedagogik texnologiyalar – do'stona mukit yaratish omili. Metodik qo'llanma. - Toshkent 2005 yil. -54 b.
11. N.X.Avliyaqulov Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Toshkent: Muallif, - 2001 yil. – 42-50 b.
12. N.X.Avliyaqulov O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari.-Buxoro: Muallif, 2001 yil.
13. J.G'.Yo'ldoshev., S.A.Usmonov, Pedagogik texnologiya asoslari, Toshkent «O'qituvchi» nashriyoti 2004 yil.
14. N.Sultonova «O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi» kursini modulli texnologiyalar asosida o'qitish. «Xalq ta'limi» jurnali, 2005 yil 6 son -52-56 b.
15. S.Fuzailov, M.Xudoyberganova Ona tili. 3-sinf uchun darslik. «O'qituvchi» Nashriyot-manbaa ijodiy uyi.-Toshkent 2005 yil. -143 b.
16. R.Ikromova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, D.Shodmonqulova Ona tili. 4-sinf uchun darslik. Toshkent «O'qituvchi»., 2003 yil. -190 b.
17. M.Jumaniyozova Tarix darslarida innovasion texnologiyalardan foydalanish. «Xalq ta'limi» jurnali 2006 yil 2 son. -44-46 b.
18. I. Yo'loshev, M. Mirzarakimova Ona tili va adabiyotdan noan'anaviy darslar. Metodik qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU nashri.-Toshkent 2006 yil. 8-18 b.
19. N. Saidakmedov Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent: Moliya, 2003 yil.

20. A.K.Munavvarov Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 201 b.
21. www.ziynet.uz
22. www.mip.uz
23. www.pedagog.uz
24. www.ref.uz
25. Q.To'laboyeva Yangi pedagogik texnologiyalar. –Namangan, 2001. – 62 b.
26. G'.Ko'jayev., A.Quvvatov Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash. – Samarqand, 2004 yil. – 82 b.
27. N.Shodiyev Pedagogika fanidan muammoli vaziyatlar va o'quv topshiriqlari.- Samarqand: SamDU nashri, 2004 yil. -80 b.